FARG‘ONA VILOYATI RISHTON TUMANI HOKIMI QARORI

2023 - yil 4 - sentabr 208-11-158-Q/23 Rishton tumani hokimligi

Rishton tumani hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida

2023-yilning o‘tgan 6 oyi mobaynida tuman hududida jami yo‘l transport hodisasi bilan bog‘liq 24 ta jinoyat sodir etilgan bo‘lib, ushbu sodir etilgan YTH natijasida 8 nafar fuqaro vafot etgan va 32 nafar fuqarolar turli darajada tan jarohati olgan. Respublikamiz hududida kundan-kunga transport vositalari soni ortib borayotganligi hamda tuman hududidagi yo‘llarda YTH oldini olish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.04.2022-yildagi PQ-190-sonli “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.04.2021-yildagi 232-sonli “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasiga xususiy sektorlarni jalb etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.11.2020-yildagi 713-sonli “Yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.04.2022-yildagi PQ-190-sonli “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Rishton tumani YFUK boshlig‘i U.Akbarovga 1 hafta muddat ichida tuman hududidagi aholi yashash punktlari va ko‘chalarda yo‘l chiziqlarini chizish, yo‘l harakatini tashkil etishning texnik vositalarini o‘rganib chiqish, nosoz va yaroqsiz holga kelib qolganlarini ta’mirlash va almashtirish chora-tadbirlarini

belgilasin.

3. Rishton tumani IIB YHXG katta inspektori U.Tashbaltayevga:

- jismoniy va yuridik shaxslar imkoniyatlaridan foydalangan holda harakat xavfsizligiga doir qoidabuzarliklarni aniqlash uchun 4k-920d-Rishton shahri aylanma yo‘li (Qalaynav, To‘da, Avazboy va Uch-ariq MFY)dagi chorraha va xavfli hududlariga qo‘zg‘almas videokuzatuv kameralari o‘rnatilishi va videokuzatuv kameralari tomonidan tasvirga olingan qoidabuzarliklarni qonun ustivorligini ta’minlash va kelgusida haydovchilar tomonidan qo‘pol qoidabuzarliklar hamda avariya holatlari sodir etilishini oldini olish maqsadida “ejarimauz veb-sayti” joylashtirib borilishini tashkil etish;

- har oyda tuman hududidagi yo‘llarning holati va mavjud infratuzilma, avariya o‘choqlari, qoidabuzarliklarning tahlilidan kelib, boshqa harakat xavfsizligi, transport va yo‘l sohasiga mas’ul bo‘lgan idoralar rahbarlariga axborotnoma va taqdimnoma kiritilib, ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etilishini nazoratga olish vazifalari topshirilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini ta’minlanishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari N.Oripov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Б.Холиков**